Жамият ва инновациялар –
Общество и инновации –
Society and innovations
Journal home page:
https://inscience.uz/index.php/socinov/index

Socio-psychological factors of ensuring gender equality relations in Uzbek families

Gulzoda ESHONKULOVA[1]

Karshi State University

ARTICLE INFO

Article history:
Received June 2022
Received in revised form
25 June 2022
Accepted 25 July 2022
Available online
20 August 2022

Keywords:
society,
family,
reform,
national values,
human rights,
gender equality,
gender,
women,
men,
family relations,
couple,
parent,
child,
role,
division of labor,
oppression,
violence.

ABSTRACT

The article examines socio-psychological factors of ensuring gender equality in Uzbek families, equal rights and opportunities for women and men, and protecting women from oppression and violence. Also, the article puts forward important recommendations on improving the legal and economic status of women, their living and working conditions, maintaining reproductive health, and changing traditional roles of women and men in society and family. Research conducted by the author shows that the study of this problem is very relevant today.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.
DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4-pp220-225
This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

O‘zbek oilalarida gender tenglik munosabatlarini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari

Kalit so‘zlar:
jamiyat,
oila,
islohot,
milliy qadriyatlar,

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek oilalarida gender tenglik munosabatlarini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari, bunda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish

[1] Lecturer at the Department of Psychology, Karshi State University. Karshi, Uzbekistan.

inson huquqlari,
gender tenglik,
jins,
xotin-qizlar,
erkaklar,
oilaviy munosabatlar,
er-xotin,
ota-ona,
farzand,
rol,
mehnat taqsimoti,
tazyiq,
zo‘ravonlik.

masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada xotin-qizlarning huquqiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, reproduktiv salomatligini saqlash, ayollar va erkaklarning jamiyat va oiladagi an’anaviy rolini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha muhim tavsiyalar ilgari surilgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda juda dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Социально-психологические факторы обеспечения отношений гендерного равенства в узбекских семьях

Ключевые слова:
общество,
семья,
реформа,
национальные ценности,
права человека,
равенство полов,
пол,
женщины,
мужчины,
семейные отношения,
пара,
родитель, р
ебенок,
роль,
разделение труда,
угнетение,
насилие.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются социально-психологические факторы обеспечения гендерного равенства в узбекских семьях, обеспечения равных прав и возможностей женщин и мужчин, защиты женщин от угнетения и насилия. Также в статье выдвинуты важные рекомендации по улучшению правового и экономического положения женщин, улучшению условий их жизни и труда, сохранению репродуктивного здоровья, изменению традиционных ролей женщины и мужчины в обществе и семье. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы весьма актуально на сегодняшний день.

Jonajon Vatanimiz mustaqillikka erishgach mamlakatimizda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish masalalari bo‘yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament Yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Bugungi kunda islohotlar samarasi sifatida jamiyatimiz hayotida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilganligi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlanayotganligi, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularni har xil tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi quvonarli holdir.

Ma'lumki, "gender" tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha "genus", ya'ni "jins" ma'nosini anglatib, jamiyatda har ikki jins vakillari o'zlarining shaxsiy fazilatlarini namoyon qilish uchun teng, bir xil sharoit va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratsa, gender esa – ayol va erkaklarning jamiyatdagi statusini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi va belgilashi uchun davlatning ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'tgan davr mobaynida O'zbekistonda erkaklar va ayollar o'rtasida to'liq tenglikka erishishga, ayniqsa, xotin-qizlarning huquqiy va iqtisodiy ahvolini, ularning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilashga, reproduktiv salomatligini saqlashga, shuningdek ayollarning ham, erkaklarning ham jamiyat va oiladagi an'anaviy rolini o'zgartirishga qaratilgan siyosat qonun chiqaruvchilik va ijro etuvchilik darajalarida olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab uning inson huquqlariga oid asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan xalqaro huquqiy hujjatlar – Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" hamda "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi qoidalariga mos ravishda oilani mustahkamlash, uning har bir a'zosi haq-huquqlarini himoya qilish, oilaviy munosabatlarda o'z huquq va erkinliklaridan to'laqonli foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik bazasi yaratildi va yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang tarzda doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Jumladan, xalqimizning milliy o'ziga xosligi, avloddan avlodga o'tib kelayotgan urf-odat va an'analarimiz, qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat va ishonch ramzi sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga "Oila" deb nomlangan alohida bob kiritilib, uning 63-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi qat'iy kafolatlab qo'yildi.

Jahon psixologiyasida oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalasini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, amerikalik tadqiqotchi Devid Mayyers jins, genlar va madaniyat masalalarini o'rganar ekan, genderni - erkaklik va ayollik xususiyatlarini tavsiflovchi tushuncha sifatida, jinsiy tafovutlarni o'rganish xotin-qizlarning erkaklarga nisbatan anchagina masalalarda ustunlikka ham ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, ayollardagi tajovuzkorlikning kamligi, o'zgalarga g'amxo'rlik va o'zgalar tashvishlariga nisbatan befarq bo'lolmaslik, hamdardliklari aynan ularning jamiyatda tutgan foydali mavqelarini belgilashi mumkin. Aynan ayollar, boshqa tadqiqotchilarning fikricha, insonlar bilan bo'ladigan munosabatlarda iliqlik, yaqinlik tarafdorlaridir.

O'zbekistonda ham gender masalasi ko'pincha oila muammolari doirasida o'rganilishi an'anaga aylangan. Jumladan, mamlakatimiz psixologiyasida E. G'oziyev, G'. Shoumarov, V. Karimova, A. Jabborov, I. Yokubov, B. Qodirov, S. Mirxosilov, E. Usmonov, N. Sog'inov, F. Akramova, L. Karimova, N. Salayeva, O. Shamiyeva, O. Abdusattorova, M. Fayziyeva, I. Jabborov va boshqalar tomonidan oilaviy hamda shaxslararo o'zaro munosabatlar doirasida alohida ahamiyat kasb etgan gender tafovutlar o'rganilgan.

E. G'oziyev oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalalariga to'xtalib, oila but bo'lishi uchun birinchi navbatda, shaxslararo tenglikni qaror toptirish kerakligini ta'kidlaydi. Bunda ikki yosh, ya'ni bo'lg'usi kuyov-kelinlar bir-birlarini chuqurroq o'rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko'z yumushlari zarur. Yoshlarni qiyinchiliklarni

yengishga, oʻzgacha shart-sharoitga koʻnikishga bolalikdan oʻrgatib borish lozim. Eng muhimi ular oʻrtasida chin muhabbat boʻlishi darkor. Oilada mehnat taqsimotini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish ayni muddaodir, deydi muallif.

V. Karimovaning oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik omillari va oqibatlariga bagʻishlangan asarlarida oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash, gender tasavvurlarning shaxs tarbiyasidagi oʻrni, er-xotin va oiladagi salbiy munosabatlarning bola shaxsiga taʼsiri masalalariga koʻproq eʼtibor qaratadi. Uning fikricha, oiladagi oʻzaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differensiatsiyasi oʻzining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega boʻlib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy maʼnaviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, anʼanalar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bogʻliqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha boʻlgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari oʻrtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini koʻrsatib oʻtgan.

Ota-ona munosabatlarining farzandlarga gender taʼsiri muammosi M. Salayeva tadqiqotlarining predmetiga aylangan. Jumladan, u qoʻlga kiritgan xulosalardan biri, oʻzbek oilalarida otalarga nisbatan onalarning farzandlariga oʻta gʻamxoʻrligi, yaʼni ularni qiyinchiliklardan saqlash, ziyon yetkazib qoʻyishdan qoʻrqish, farzandining oʻziga bogʻlanganligi va tobeligini ragʻbatlantirish, ularda shahvoniylik va tajovuzkorlikni bosish kabi xususiyatlarning kuchligigi, onalarda otalarga qaraganda demokratiklilikning kuchliligi isbotlangan.

M. Fayziyevaning tadqiqotlarida koʻrsatilishicha, oʻzbek oilalarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini belgilashda er-xotin munosabatlaridagi oʻzaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunish, farzandlar, muomala odobi, onglilik va maʼnaviy axloqiy mavqe, uning moddiy taʼminlanganligi, uy-joy bilan taʼminlanganlik, rollar taqsimotining mosligi, jinsiy moslik muhim omillar hisoblanadi. Muallif oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin feʼl-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, ola budjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar boʻlib, roʻzgʻor ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy taʼminotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim oʻrin tutadi, deydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni taʼminlash masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Shubhasiz, qaysidir jamiyatda gender tenglik taʼminlanmas ekan, u jamiyatda rivojlanish boʻlmaydi, sababi ayol va erkak huquqlari buzilar ekan, oʻsha jamiyatning ijtimoiy hayotida tengsizlik yuzaga keladi, mehnat unumdorligi pasayadi, iqtisodiy oʻsish sekinlashadi, farzandlar nosogʻlom tugʻiladi, qashshoqlik darajasi ortib boradi. Qizlar bolaligidanoq asrlar davomida qaror topgan ayollik vazifalarini bajarishga tayyorlanadi, ularda sustkashlik, yuvoshlik va itoatkorlik ruhi tarbiyalanadi; erkaklar oila budjetini shakllantirishda ishtiroklari hissasi yuqori boʻlganligi tufayli oilada hukmron mavqeni egallaydilar; uy-roʻzgʻordagi vazifalar taqsimlanishida notenglikka yoʻl qoʻyiladi va hokazo.

Maʼlumki, oila murakkab ijtimoiy muassasa boʻlib, oila ichki munosabatlari va er-xotin oʻrtasidagi munosabatlarning shakllanishida koʻp narsa, birinchi navbatda, milliy madaniyat, tarixiy anʼanalar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, shaxs omillari muhim oʻrin tutadi. Oila bola

voyaga yetadigan asosiy makon va barcha insoniy munosabat turlarining oʻchogʻidir. Hozirgi zamon oilasi ma'lumotli, intellektual jihatdan rivojlangan kishilarni, oʻz munosabatlarini oʻzaro hurmat va tushunish asosida qura oladigan erkaklar va ayollarni tarbiyalashga xizmat qila oladigan maskan hisoblanadi. Biroq hamma oilalarda ham ayollar va erkaklar huquqlari tengligi har doim ham bir xilda namoyon boʻlavermaydi, sababi erkaklarning ayol kishini ojiza deb bilishi ba'zi oilalarda tarbiya orqali an'ana sifatida singdirilgan. Bejizga aytishmaydi "Qush uyasida koʻrganini qiladi" deb. Oilalarda gender tenglikni ta'minlashda katta avlodning oʻrni juda muhim, gerontopedagogik tadqiqotlarga koʻra, avlodlar oʻrtasida vorislik qonuniyati orqali aynan katta avlod oʻz ibratlari ilm-ma'rifati orqali, bilim va tajribalarini kelajak avlodga oʻrgatib, yoshlarning qalbiga singdirishi, hayotga tatbiq qilishi lozim.

Oilaning jamiyatda tutgan oʻrni, oila tarbiyasi, ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam boʻlishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim oʻrin egallaydi. Islomda er-xotin oʻrtasidagi munosabatning davomiyligini ta'minlash uchun oʻziga xos qonun-qoidalar joriy qilingan. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a'zolari boʻlmish er va xotinning har biriga oʻziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Islom ta'limoti ayollarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir, deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida ayolga koʻproq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa ayolning huquqi ta'minlanadi. Nikoh shartlaridan biri boʻlmish – mahr ham aynan ayollarning foydasi uchun joriy etilganligi muqaddas dinimizda ayollarning naqadar ulugʻlanganidan darak beradi.

Ayolini e'zozlagan yurt tamaddun silsilasida yuksak martabaga koʻtarilib, turmushi kundan kunga farovonlashib borishini kundalik hayotimizning oʻzi koʻrsatib turibdi. Zamonamizda ustuvor boʻlgan qarashlarda ham jamiyatning qanchalik taraqqiy etgani uning ayolga munosabati nechogʻlik goʻzal va ma'naviy asosga ega ekani bilan belgilanishi ta'kidlanadi. "Buyuk shaxsni buyuk ona tarbiyalaydi" degan naql bor. Buyuk onalarni tarbiyalash esa yana oʻsha oila atalmish muqaddas dargohning holati va muhitiga kelib taqaladi. Ona hurmat topgan oilada farzand ham oqil boʻlib oʻsadi. Bolalikda ayolga hurmatsizlik namunalarini koʻrib ulgʻaygan bola esa kelajakda oʻz oilasini ham mustahkam saqlay olmaydi. Oilasining sha'ni va nomusini himoya qilishga qobil boʻlmaydi. Shu bois, farzand bu mas'uliyatning nechogʻlik sharaf ekanini bolalikdanoq koʻrib, tushunib yetishi kerak. Ona hurmat koʻrmay oʻtgan oilada balogʻatga yetgan qiz ham turmush shunday ekan, degan tasavvur bilan ulgʻayadi.

Oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish va gender tenglikni ta'minlashda erkakning ham, ayolning ham oʻz oʻrni bor. Oilaviy hayot masalalarida erkak va ayol jamiyatdagi meyorlarga amal qilishi, zimmasidagi burch va vazifani qonun doirasida, adolat tamoyillariga rioya qilgan holda bajarishi, oila boshqarishni bilishi, yoshlarni oʻz ortidan ergashtira oladigan, turli ishlarga chiroyli tarzda safarbar eta oladigan salohiyatga ega boʻlishi, nafaqat oila a'zolariga, balki jamiyatning barcha a'zolariga ibrat boʻlishi zarur. Er va xotinning gender tenglik masalasida bir-birlarini tushunishi, hurmat qilishi, oilaviy masalalarni birgalikda hal qilishga harakat qilishi oilada yuzaga keladigan har qanday nizo, ixtilof va muammolarni tinch yoʻl bilan bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi. Sababi, ota-ona, kelajak avlod egalari – yoshlar uchun ibrat koʻzgusidir.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlarga yakun yasab, shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash muammosi juda dolzarb bo'lib, maqsadga erishish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

– oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolarining mas'ulligini oshirish, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish;

– erta nikoh, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq, oilaviy ajralishlarning yuzaga kelish sabablari hamda shart-sharoitlarini tahlil qilish, bu borada ilmiy, amaliy hamda fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

– asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, ijobiy urf-odatlar va an'analar asosida oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajralishlarning oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash;

– oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning o'rni haqida jamiyatda shakllangan salbiy qarashlarni o'zgartirish, bu borada ommaviy axborot vositalari ishtirokida targ'ibot-tashviqot ishlarini qo'llab-quvvatlash;

– ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishda xotin-qizlar bilan bir qatorda erkaklarning mas'uliyati hamda rolini oshirish;

– oilaviy hayotga oid muammolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan xotin-qizlar va erkaklar uchun maslahatlar berish tizimini yanada takomillashtirish;

– oilalarni yoshlarning axloqiy negizlarini buzishga olib keladigan, oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ'ib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa a'zolariga nisbatan hurmatsizlik munosabatini shakllantiradigan, jinslardan birining ustunligi g'oyasiga asoslangan noto'g'ri tasavvurlardan himoya qilish;

– xotin-qizlar va erkaklarning oilaviy munosabatlardagi huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to'g'risida axborot-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ–297-IV-sonli qarori. Lex.uz

2. Yoziyev E. Ta'lim muassasalarida gender-menejmentning zamonaviy psixologik masalalari: muammo, yechim va takliflar. "Zamonaviy ta'lim/ Современное оброзование" jurnali. 2017, 3-son.

3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2012, – B. 172.

4. Salayeva N. Xorazm oilalarining etnopsixologik xususiyatlari. / Psixol. fan. nomz. … diss. – T., 2001. – B. 162.

5. Fayziyeva M., Jabborov A. "Oilaviy munosabatlar psixologiyasi". – T.: "Yangi asr avlodi", 2007. – B. 144.

6. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi.: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. – T.: Sharq. – B. 140.

7. G'oziyev E. Psixologiya metodologiyasi. – T.: 2002. – B. 174.